

BILINGVIZM VA MADANIYATLARARO MULOQOT**Iroda Bahronova**

Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6815271>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bilingvizmning paydo bo‘lish tarixi, jahon tilshunosligida ikki tillilikning ahamiyati, bu borada tilshunoslarning qarashlari, uning madaniyatlararo aloqalarga xizmat qilishi, bugungi kundagi bilingvizm masalalari, Tohir Malik asarlaridagi ikki tillilik o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, bilingvlar, bilingvizm masalalari, madaniyatlararo muloqot, dialektal va internatsional interfeysiya.

BILINGUALISM AND INTERCULTURAL COMMUNICATION

Abstract. This article examines and analyzes the history of bilingualism, the importance of bilingualism in world linguistics, the views of linguists on it, its role in intercultural relations, issues of modern bilingualism, bilingualism in the works of Tahir Malik.

Keywords: bilingualism, bilinguals, bilingualism issues, intercultural communication, dialectal and international interface.

БИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ

Аннотация. в данной статье рассматривается и анализируется история двуязычия, значение двуязычия в мировом языкознании, взгляды на него языковедов, его роль в межкультурных отношениях, вопросы современного двуязычия, двуязычие в творчестве Тахира Малика.

Ключевые слова: билингвизм, билингвали, проблемы двуязычия, межкультурная коммуникация, диалектный и интернациональный интерфейс.

KIRISH

Ma'lumki, til aloqalari tushunchalarini ifodalovchi terminlardan biri bilingvizmdir. Bilingvizm (ikki tillilik, zullisonaynlik) ikki tilda bemalol muloqot qilish, ikki til sohibi bo‘lish demakdir. Ikki tilda o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar bilingvlar hisoblanadi. Bu atamaning kelib chiqishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, miloddan avvalgi III-II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galliyani (bugungi Fransiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til – lotin tili bilingvizmi vujudga keladi.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Ommaviy bilingvizm sharoitida interfeysiyaning ba’zi turlari til tizimiga ta’sir etib, ayrim o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Olimlar bu vaziyatda tilning hududiy farqlanishi – etnik sheva yuzaga kelishi mumkin, deb hisoblaydilar. Interfeysiyaning ikki guruhga: dialektal interfeysiya va internatsional interfeysiya turlariga ajratish maqsadga muvofiq. Dialektal interfeysiya til tashuvchisining bir subkod orqali muloqot jarayonida ikkinchi subkod birligini qo‘llashi natijasida yuzaga chiqadi:

– *Voy, aylanaylar, kelinglar, bolajonlarim. O‘tiringlar. (Z. 78-b.) // – Voy, savil! – dedi u g‘ijinib. – Otasi tirik turib pulni nimaga pochchasiga yuboradi? (Z. 159-b.)*

Internatsional interfeysiya ikki milliy tilning aralashuvidan hosil bo‘ladi. Masalan, o‘zbek-rus bilingvizmini quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin:

– *Чтоб, мен бuni boshqa eshitmay. Bilding? Пока мен borman, hammasi za moy смет. Sen студентсан. Так что, o'qishingni bil! (Z. 93-b.)*

Shu o'rinda interfeysiyaning ayrim turlari dialektal interfeysiyada uchramasligi, ayrimlarining esa faolligini qayd etish lozim. Xususan, ushbu gapda Toshkent shevasi qo'llanilganini ko'ramiz: – *Men kennayilariman. Hozir akalarini chaqiraman. (Sh. III t, 159-b.)*

Turkiy-rus bilingvizmini o'rganishning asosiy aspektlaridan biri kontaktga kiruvchi tillarning barcha bosqichlarida o'zaro ta'sir natijasida hosil bo'luvchi o'zgarishlarni, avvalo, turkiy tillarning barcha bosqichlaridagi o'zgarishlarni o'rganishdir, chunki bu tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirda turkiy tillar ko'proq o'zgaruvchandir. Turkiy-rus ikki tilliligi natijasida eng sezilarli o'zgarishlar turkiy tillar sintaksisida ro'y beradi.

TADQIQOT NATIJASI

Asosiy til bosqichlarining ba'zi qismlari bilingvizm ta'sirida juda sezilarli ravishda o'zgaradi. Ularga leksika, asosan, uning fan, siyosat, iqtisod va ideologiya bilan bog'liq terminologik qismi hamda har xil mavhum tushunchalarga xos leksika kiradi: – *Men advokatman, nima uchun meni ichkariga qo'y maysizlar? – dedi jigarrang shlyapali yigit. ...Moskovlik prokuror so'roq qilyapti. O'zimizning prokurorlarni yaqinlashtirmayapti. (VO. 8-b.)*

Yuqoridagi gaplarda o'zbek tilining leksik jihatdan boyishiga xizmat qilgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin. *Advokat, prokuror* kabi rus va fransuz tilidan kirib kelgan terminlar nafaqat bizning tilshunosligimizda, balki dunyo miqyosida qo'llanadi. *Shlyapa* va *Moskov* kabi chet el so'zlariga -li qo'shimchasi qo'shilishi natijasida *shlyapali, moskovlik* turkiy so'zga aylangan. Bir so'z bilan aytganda, bilingvizm tillar o'rtasida madaniyatlararo muloqot va aloqalar rivojiga xizmat qiladi.

Rus va boshqa tillarning sezilarli ta'siri turkiy adabiy tillardagi har xil stillarga xos leksik-grammatik vositalarning qo'llanishida ko'rinadi. Undan tashqari, tillardagi ichki vositalarning aktivlashuvi, birinchi navbatda, dialekt va jonli nutq leksikasi, dubletlar va sinonimik, leksik va grammatik qatorlarning stilistik ishlatilishidagi farqlanishlar va hokazolar hisobiga bo'ldi.

Bilingvizm va rus tilini chuqur o'rganilishi natijasida turkiy adabiy tillarning takomillashuvi va ulardagi stilistik xususiyatlarning boyishi, xususan, poetik stilda yangi ritm va metrikaning qo'llanilishi, yangi poetik formalar va klassik poetik qonuniyatlarning aktivlashuvi kabi masalalar kengroq ochiladi: – *Балбесингнинг uyiga bordim. Старухasi bilan gaplashdim. Криминал ish devdim, ваабше очумела. Все, bir oydan keyin to'y! Да, между прочем, до to'ygacha uyni балбесning nomiga o'tkazadi. O'tkazmasa, o'g'li tyurmada chiriydi. (Z. 114-b.)*

O'zbek va tojik xalqlarining asrlar davomida bir hududda yonma-yon yashab kelganliklari mazkur tillarning leksik-semantik strukturasi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buning natijasida o'zbek-tojik bilingvizmi vujudga kelgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, leksik-semantik ta'sir keng yoyilgan bo'lsa ham, fonetik ta'sirdek ko'zga yaqqol tashlanib turmaydi. Shu boisdan, tadqiqotchilar tomonidan asosiy e'tibor fonetik ta'sirga qaratilgan bo'lib, tillararo leksik-semantik ta'sir e'tibordan chetda qolgan. O'zbek va tojik tillari ikki tillilik holatida bo'lganligi uchun "...Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi viloyatlarida yashovchi tojiklar tilida o'zbek tili bilan turli til sathlarida o'xshashlik, tipologik yaqinlik vujudga keldi". Tojik tilining shimoliy shevalarida "*fe'lro ovardan*" iborasi – "*Achchig'ini chiqarmoq*",

“*Jahlini chiqarmoq*” ma’nosida qo’llanadi. Mazkur misolda tojikcha va o‘zbekcha model qo‘shilib, “*fe’lni chiqarmoq*” shakliga kelgan. Yozuvchi Tohir Malik asari misolida qaraydigan bo‘lsak: “*Mehmon uning harakatini zimdan kuzatdi. Beodobligidan achchig‘i chiqsa-da, sir boy bermay, mezbonga qaradi*”(T.6-b.), “*Birga bo‘lgan yillari davomida u Asadbekning g‘ashini keltiradigan, jahlini chiqaradigan ishlarni ko‘p qildi.* (Sh. IV t., 86-b

MUHOKAMA

Tojik tilidagi “*shikastan*” fe’li ifodalagan ma’no o‘zbek tilidagi “*sindirimoq*” hamda “*chaqmoq*” fe’llarining ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Misol uchun: “*Suyagimni sindirib yuborgansan, shekilli, og‘riyapti*”(T. 119-b.), “*G‘ayratning otasi bolaligida oyog‘ini sindirib olganmi yo tug‘ma cho‘loqmi, Asror bilmaydi, harholda hassasiz yurolmaydi*”. (T. 216-b.)

O‘zbek tilining qarindosh va noqarindosh tillar bilan mavjud kontaktlari, bilingvizm va u bilan bog‘liq hodisalarni tadqiq qilish o‘zbektilshunoslari oldida turgan eng muhim dolzarb muammolaridan biridir. O‘zbek tilshunosligida til aloqlari, ularning bir-biriga ta’siriga bag‘ishlangan maxsus nazariy ishlar yaratilmagan. Bu esa til sohasida bilingvizm va interferensiya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borishga turtki bo‘lmoqda. Ikki tillilik va ko‘p tillilikning turli muammolariga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami ham mavjud bo‘lib, ularda bilingvizm, uning turlari, tarixiy ildizlari, til interferensiyasi, uning mohiyati, bilingvizmga munosabati kabi masalalar yoritilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek tilining keng imkoniyatlari mavjud va unda bilingvizmning o‘rni beqiyos. Madaniyatlar o‘rtasida aloqa va kommunitatsiyalarning rivojiga ham bilingvizm katta hissa qo‘shadi. Buning isbotini biz yuqorida Tohir Malik asarlari misolida ko‘rib chiqdik. Keyingi tilshunoslik bosqichlarida bilingvizm masalalarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Розенцвейг В. Ю. Языковые контакты. – Ленинград: Наука, 1972.
2. ². Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002.
3. Расторгуева В.С. Опыт сравнительного изучения таджикских говоров. – Москва: Наука. 1964.
4. Hakimov M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol.fan.doktori.diss. – Toshkent: 2001.
5. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Sharq, 2006
6. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik 4-jild. – Toshkent: Sharq, 2009
7. Malik T. Voy, onajonim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015
8. Malik T. Zulm. – Toshkent: Sharq, 2016
9. Malik T. Talvasa. – Toshkent: Sharq, 2012